



MILLIY HISOBOT

2024

**O'zbekiston Respublikasida  
OIVga qarshi milliy chora-  
tadbirlarni gender baholash**

TOSHKENT - 2022



Ushbu hujjat UNAIDSning texnik qo'llab-quvvatlovi bilan ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar va hisobot yozish jarayoni gender masalalari bo'yicha konsultant Sara Skardavilli va gender masalalari bo'yicha konsultant Niginaxon Saida tomonidan amalga oshirilgan. Baholashni tayyorlash jarayoni UNAIDSning O'zbekistondagi ofisi rahbari Charos Maksudova rahbarligida o'tgan. Jamoa O'zbekistonning Idoralararo Ekspert Kengashi menejeri Dilnoza Avazova; "Ishonch va Hayot" Respublika NNTning gender dasturi koordinatori Yevgeniya Korotkova; UNICEFning O'zbekistondagi ofisida gender masalalari va ijtimoiy integratsiya bo'yicha mutaxassis Komola Rahmanova; UNFPAning O'zbekistondagi ofisida jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha analitik Nargiza Fuzailova va UNAIDSning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy ofisida siyosat va tenglik masalalari bo'yicha mutaxassis Elena Kiryushinalar tomonidan berilgan qimmatli hissalar uchun minnatdorchilik bildiradi. Hujjat Dilnoza Sametdinova va Amal Santini tomonidan tahrir qilingan.

Ushbu hisobotdagi gender baholash tahlili UNAIDS va uning mandati hamda/yoki uning hamkor sponsorlari, a'zo davlatlar va fuqarolik jamiyati tomonidan ma'qullangani, munosabat yoki qo'llab-quvvatlanganini bildirmaydi va ifoda etmaydi. Tahlil mazmuni mustaqil tekshiruvdan o'tkazilmagan. UNAIDS tematik tadqiqotlar mazmunining to'liqligi va aniqligi to'g'risida hech qanday bayonot, va'da yoki kafolat bermaydi va mazmundagi xatoliklar va yetishmovchiliklar uchun javobgarlikni ochiqchasiga rad etadi.

# MUNDARIJA

<b>MUNDARIJA</b>	<b>3</b>
<b>QISQARTMALAR</b>	<b>4</b>
<b>QISQA SHARH</b>	<b>6</b>
<b>GENDER BAHOLASH MAQSADLARI</b>	<b>7</b>
<b>METODOLOGIYA</b>	<b>8</b>
<b>XULOSALARNI KO'RIB CHIQISH</b>	<b>8</b>
<b>1 BOB: KIRISH</b>	<b>9</b>
1.1. Global OIV epidemiyasi va O'zbekistondagi OIV konteksti haqida ma'lumot	10
1.2. Gender baholashni asoslash	13
1.3. Gender baholashdagi cheklovlar	13
<b>2 BOB: OIV MILLIY EPIDEMIYASI HAQIQA MA'LUMOT</b>	<b>14</b>
2.1. OIVni yuqtirib olish va uning tarqalganligi	15
2.2. Gender ijtimoiy-madaniy me'yorlari va amaliyotlari OIVning harakatlantiruvchi kuchi sifatida	22
2.3. Gender ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik	28
<b>3 BOB: OIVGA QARSHI MILLIY JAVOB CHORALARI HAQIDA MA'LUMOT</b>	<b>34</b>
3.1. Muvofiqlashtirish va ishtirok	35
3.2. Qonunchilik va strategiya	35
3.3. OIVga javob choralari moliyalashtirish	36
3.4. OIVga test o'tkazish va davolash	38
<b>4 BOB: XULOSALAR VA TAVSIYALAR</b>	<b>41</b>
4.1. Yakuniy izohlar	42
4.2. Qaror qabul qiluvchi shaxslar uchun O'zbekistonda OIVga qarshi kurashni gender nuqtai nazaridan kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar	43
<b>JADVALLAR VA RASMLAR</b>	<b>48</b>
<b>HAVOLALAR</b>	<b>49</b>

# QISQARTMALAR

<b>ART</b>	Antiretrovirus terapiya
<b>YaIM</b>	Yalpi ichki mahsulot
<b>OIV</b>	Odamning immunitet tanqisligi virusi
<b>YaMD</b>	Yalpi milliy daromad
<b>JSST</b>	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti
<b>IIV</b>	O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi
<b>BHM</b>	Bazaviy hisoblash miqdori
<b>MIKS</b>	Ko'p ko'rsatkichli klaster so'rovi
<b>NNT</b>	Nodavlat notijorat tashkilot
<b>OIVOBYuB</b>	OIVni onadan bolaga yuqishini bartaraf etish
<b>BMTTD</b>	BMT Taraqqiyot Dasturi
<b>OAV</b>	Ommaviy axborot vositalari
<b>OITS</b>	Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi
<b>UNICEF</b>	BMTning bolalar jamg'armasi
<b>UNODC</b>	BMTning gijohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi
<b>UNFPA</b>	BMTning Aholishunoslik jamg'armasi
<b>UNAIDS</b>	BMTning OIV va OITS bo'yicha qo'shma dasturi
<b>UBRAF</b>	UNAIDSning yagona byudjet, natijalar va UNAIDS hisobdorligi tizimi
<b>STEM</b>	Fan, texnologiya, muhandislik va matematika




# QISQA SHARH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (84-son) qarorida ta'kidlanganidek, O'zbekistonda OIV epidemiyasi bo'yicha konsentrlangan bosqichda bo'lib, har yili 3500-4000 yangi holatlar qayd etilmoqda<sup>1</sup>. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2021-yil yakuniga ko'ra 45 mingga yaqin odam OIV bilan yashaydi<sup>2</sup>. Ilgari mamlakatda OIVni yuqtirishning eng keng tarqalgan usuli inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qilish bo'lgan bo'lsada, oxirgi paytlarda OIV infeksiyasining jinsiy yo'l bilan yuqish holatlari ortib bormoqda (rasmiy ravishda 2020-yilda yangi OIV holatlarining 74,9%ini tashkil etdi). Yangi OIV holatlari orasida 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 25%ni tashkil etadi<sup>3</sup>.



O'zbekistonda OIV infeksiyasiga qarshi choralarni gender baholashdan ko'zlangan asosiy maqsad OIV infeksiyasining oldini olish, aniqlash va davolash bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan mamlakatning OIVga qarshi choralarni aniqlash va tahlil qilish hamda ushbu chora-tadbirlarni gender nuqtai nazaridan takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Garchi OIV ayollarga qaraganda erkaklar orasida ko'proq tarqalgan bo'lsa-da (2022-yil holatiga ko'ra bu nisbat 45%ga 55%), chunki ayollarga OIV va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, masalan, gender tengsizligi va mamlakatda keng tarqalgan gender zo'ravonliklari bilan nomutanosib ta'sir ko'rsatadi. Ular OIVga nisbatan ko'proq himoyasiz va shuning uchun maxsus yondashuvlarni talab qiladi.



Genderni baholash jarayoni OIV infeksiyasini yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan odamlarning jamoalarini, rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslar va ularning mijozlari, inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi odamlar va erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'luvchi erkaklar kabi aholining guruh guruhlarni aniqladi. Jamoa shu narsani aniqladiki, muhojirlar va yoshlar, garchi aholining muhim guruhlarning bir qismi bo'lmasa-da, alohida e'tibor talab qiladi, chunki ular OIV qarshi chora tadbirlari va milliy xabardorlik kampaniyalarining nishoni bo'lishda davom etmoqda.

O'zbekistonda OIVga qarshi choralarni gender baholash natijalariga ko'ra, jamoa gender nuqtai nazaridan OIVga qarshi milliy chora-tadbirlarni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar to'plamini ishlab chiqdi, bunda asosiy e'tibor xabardorlikni oshirishga, tashviqotga, resurslarni safarbar qilishga, salohiyatni oshirish va monitoringga qaratilgan.

# GENDER BAHOLASH MAQSADLARI

1

OIV epidemiyasi holatini O'zbekistonda gender tengsizlikka sabab bo'luvchi omillar, masalan, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillarga e'tibor qaratish orqali gender nuqtai nazaridan baholash;

2

Gender nuqtai nazaridan OIVga qarshi milliy choralarni baholash uchun qonun hujjatlari va boshqa mavjud materiallarni o'rganish va tahlil qilish;

3

OIVga qarshi javob choralarini gender isloh qiluvchi, adolatli va inson huquqlariga asoslangan va pirovardida yanada samaraliroq qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

4

Gender nuqtai nazaridan O'zbekistonda OIVga qarshi dasturlarni keyingi strategik rejalashtirish, resurslarni samarbar qilish va boshqarish bo'yicha tavsiyalarni taqsimlash.



# METODOLOGIYA

O'zbekistonda OIVga qarshi milliy javobni gender baholash UNAIDSning 2018-yildagi OIVga gender isloh qiluvchi choralarni genderni baholash vositasida batafsil bayon etilgan ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirildi.

UNAIDS milliy OIVga qarshi choralari uchun genderni baholash vositasi OIV epidemiyasini, kontekstni va gender nuqtai nazaridan javobni baholashni qo'llab-quvvatlash uchun tuzilgan ko'rsatmalar to'plamidir.

Ushbu vosita to'rt bosqichga bo'lingan tizimli va rejalashtirilgan qadamlar orqali OIVga qarshi milliy choralarni tahlil qilishga yordam berish uchun mo'ljallangan:



## XULOSALARNI KO'RIB CHIQISH

O'zbekistonda OIVga qarshi milliy choralarning gender baholash shuni ko'rsatdiki, garchi mamlakatda OIV o'ziga hos bosqichda bo'lsa-da, epidemiya barqaror o'sib bormoqda va bu OIV epidemiyasi Markaziy Osiyoda eng tez o'sayotgan epidemiyaga aylandi. Hozirgi vaqtda asosiy yuqish yo'li jinsiy yo'l hisoblanadi.

Garchi milliy miqyosda OIV ayollarga qaraganda erkaklar orasida (45%ga 55%) ko'proq tarqalgan bo'lsa-da, O'zbekistonda ayollar patriarxal ijtimoiy-madaniy me'yorlar va amaliyotlar, hamda jinslar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik tufayli OIV profilaktikasi, uni aniqlash va davolash imkoniyatlari bo'yicha zaif holatda. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan OIV bilan kasallanishning ko'pligi genderni asoslangan zo'ravonlikka, ayniqsa oiladagi zo'ravonlikka olib keladi va ayollarning OIVga nisbatan zaifligini yana-da oshiradi.


O'zbekistonda OIV infeksiyasining oldini olish, tashxis qo'yish va davolashda barcha manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish hamda OIVga qarshi kurashishda jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini oshirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. E'lon qilinayotgan qonun hujjatlari va harakatlar rejalarida gender kamsituvchi xususiyatlar mavjud emas, lekin gender nuqtai nazaridan qo'shimcha ko'rib chiqish talab etiladi.



O'zbekistonda OIV infeksiyasining oldini olish, tashxis qo'yish va davolashda barcha manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish hamda OIVga qarshi kurashishda jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini oshirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. E'lon qilinayotgan qonun hujjatlari va harakatlar rejalarida gender kamsituvchi xususiyatlar mavjud emas, lekin gender nuqtai nazaridan qo'shimcha ko'rib chiqish talab etiladi.



# Истифакларингиз



## 1-BOB: KIRISH

## 1.1. GLOBAL OIV EPIDEMIYASI VA O'ZBEKISTONDAGI OIV KONTEKSTI HAQIDA MA'LUMOT

Global OIV epidemiyasi boshlanganidan beri 84,2 million kishi OIV bilan kasallangan. 2021-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 38,4 million odam OIV bilan yashaydi va faqat 28,7 million odam ARV preparatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Ayollar OIV bilan yashovchi odamlar umumiy sonining 54%ini tashkil qiladi. OITS bilan bog'liq kasalliklardan o'lim 2004-yildan beri 68%ga kamaygan bo'lsa-da, 2021-yilda shu sababdan 650 mingga yaqin odam vafot etdi. O'tgan 20 yil ichida xalqaro hamjamiyat, milliy hukumatlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining birgalikdagi va muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari tufayli ARV dori vositalaridan foydalanish imkoniyati ham o'tgan yilga nisbatan yaxshilandi. 2000-yilda butun dunyo bo'ylab 500 000 dan sal ko'proq odam ARV preparatlarni qabul qilgan bo'lsa, yigirma yil o'tib, 2021-yilga kelib, 28 milliondan ortdi odam, shuningdek,

**OIV va OITS profilaktikasi, diagnostikasi va davolashga 21,4 million AQSH dollari sarflandi<sup>5</sup>.**

OIV yuqishning bir necha yo'li bor va har qanday yoshdagi va ijtimoiy guruhdagi odamlarga yuqishi mumkin. Ba'zi aholining muhim guruhlari boshqalarga qaraganda virusga ko'proq duchor bo'lganligi aniqlangan va shuning uchun OIV infeksiyasini yuqtirish xavfi yuqori. Bu guruhlar pullik rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslar va ularning mijozlari, inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi odamlar va erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'luvchi erkaklar va ularning sheriklari kiradi. Birgina 2021-yilning o'zida butun dunyo bo'ylab OIV infeksiyasining 70%i aholining muhim guruhlari orasida edi<sup>6</sup>. OIV yuqish xavfi ortishi bilan birga, bu guruhlar o'zlarining ijtimoiy va madaniy hayotida, sog'liqni saqlash tizimida diskriminatsiya, nafrat va stigmaga duch



Butun dunyoda

**84.2 million**  
odam OIV  
yuqtirib olgan

Butun dunyo bo'ylab  
OIV holatlarining

**70%i**

aholining muhim  
guruhlarida edi.



keladilar. Shuning uchun ular uchun OIV holatini anglash va to'liq, tegishli davolanishi qiyinroq. 2021-yilda UNAIDS 26 mamlakatda aholining muhim guruhlarini tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati bo'yicha so'rov o'tkazdi va uning natijalariga ko'ra hisobot berayotgan har uch mamlakatdan kamida bittasida har o'ninchi aholining muhim guruhlarini vakillik stigma va diskriminatsiya tufayli sog'liqni saqlash xizmatidan qochadi<sup>7</sup>.

O'zbekistonda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikning **80%dan** ortig'i uy sharoitida sodir bo'ladi

Ayollarga OIV va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar nomutanosib ta'sir ko'rsatadi. Ayollarning qaror qabul qilish huquqining yo'qligi va ta'limdagi gender tafovutlari, jumladan, OIVning oldini olish va davolanish imkoniyatiga oid bilimlar, shuningdek, ularning ijtimoiy-madaniy hayotidagi gender tafovutlari ayollarni OIVga nisbatan zaifroq qiladi. Natijada, OITS bilan bog'liq kasallik butun dunyo bo'ylab 15-49 yoshdagi ayollar o'limining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda<sup>8</sup>. Genderga asoslangan zo'ravonlik, ayniqsa intim munosabatlardagi jinsiy zo'ravonlik ayollar orasida virusni yuqtirish xavfini oshiradi. Erkaklar bir nechta sheriklarga ega bo'lishlari va rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslar xizmatlaridan foydalanishlari ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan madaniyatlarda va nikohda zo'rlash jinoyat emas, balki norma bo'lgan joylarda ayollar yana-da zaifroq. Ayollarga OIV bilan bog'liq parvarish majburiyatlari ham nomutanosib ravishda ta'sir ko'rsatadi, chunki ular o'z oilalarida OIV bilan yashayotgan bolalar yoki kekka odamlarga haq to'lanmaydigan parvarish qilish ishlarini o'z bo'ynilariga olishadi.

O'zbekistonda OIV infeksiyasining birinchi holati 1987-yilda qayd etilgan va 1998-yilga kelib atigi 51 kishi OIV bilan infeksiyalandi. 2000-yillarning boshidan buyon yangi holatlar va OIV bilan yashayotganlar soni keskin oshdi va 2010-yilga kelib OIV bilan yashaydigan odamlarning umumiy soni 24 057 ga yetdi<sup>9</sup>. 2022-yil fevral holatiga ko'ra, O'zbekistonda OIV bilan yashaydigan odamlar soni 45 mingdan sal ko'proqni tashkil etadi, ularning 45 %ini ayollar tashkil etadi<sup>10</sup>. "OIV bilan yashovchi odamlar doimiy diskriminatsiyaga duch kelishadi: ularga ishga joylashish rad etiladi, ularga teng munosabatda bo'lmaydilar, ularning OIV-holati uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinadi. Bularning barchasi mutlaqo noqonuniy va bunday holatlarda sudga yoki yuqori idoralarga shikoyat qilish kerak", deb tushuntiradi mahalliy ekspert.

### O'zbekistonda OIV bilan yashayotgan odamlar haqida hikoyalar – Hamid<sup>11</sup>

OIV bilan yashaydigan va o'z shahridagi OITSGa qarshi kurash markazida ro'yxatga olingan, Hamid va uning turmush o'rtog'ining tishlarida muammolar borligi sababli, tuman poliklinikasiga stomatologga murojaat qilishgan. Bir soat navbatga turib, nihoyat shifokor bilan uchrashishdi. Tashrif boshida, qonunga bo'ysunuvchi fuqaro sifatida Hamid stomatologga unda OIV bor ekanligini aytdi. Tish shifokori unga biron bir stomatologik xizmatlar ko'rsatishdan qat'iyan bosh tortdi. Hamid va uning rafiqasi stomatologga dori-darmonlarni qabul qilishayotganini va infeksiya yuqishi xavfi minimal ekanligini tushuntirishdi, ammo shifokor baribir rad etdi. Er-xotin yordam so'rab mahalliy jamoat tashkilotiga murojaat qilishlariga to'g'ri keldi, ular o'z navbatida Hamid va uning rafiqasi ro'yxatda turgan oilaviy poliklinikaga yuqumli kasalliklar bo'yicha shifokorni chaqirishdi. Shifokor muammoni hal qildi va er-xotin oxir-oqibat tish shifokorini ko'rigiga yozilishga muvaffaq bo'lishdi, ammo bu sarflangan vaqt hamda diskriminatsiya va umidsizlik holatini yana boshdan kechirish evaziga keldi.

O'zbekistonda OIV epidemiyasi konsentrlangan bosqichda bo'lib, bu esa OIV muayyan guruhlar orasida tez tarqalayotgani, lekin endemik emas va umumiy aholi orasida mustahkamlanib borayotganini anglatadi. So'nggi 20 yil ichida OIVning alohida guruhlar ichida tarqalish o'sib bordi. Har yili o'rtacha 3500-4000 yangi OIV holatlar qayd etilgan. 2010-yillarga qadar mamlakatda inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qilish OIV yuqishining asosiy yo'li bo'lgan: 2011-yilda inyeksion giyohvand moddalar sababli yuqish holatlarining 44,6%ini tashkil qilgan, 37,2%ini geteroseksual aloqa va 3,7%i onadan bolaga yuqtirish orqali ro'y bergan<sup>12</sup>. Biroq so'nggi o'n yil ichida, ayniqsa, yoshlar orasida OIV infeksiyasini himoyalangan jinsiy aloqa orqali yuqish holatlari ko'paydi: O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologiya xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda ro'yxatga olingan OIV infeksiyasining 71%i jinsiy yo'l bilan yuqqan va O'zbekistonda yangi OIV infeksiyasining 25%i 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hissasiga to'g'ri keladi<sup>13</sup>.

O'zbekistonda mahalliy gender me'yori va diskriminatsiya amaliyotlari ayollarning OIV yuqishi, diagnostikasi va davolash to'g'risidagi ishonchli va dalillarga asoslangan ma'lumotlardan foydalanishini cheklaydi va natijada ularni virusga nisbatan zaifroq qiladi. Ijtimoiy-madaniy me'yorlar gender tengsizligiga tayanadi, ya'ni ayollar erkaklarga itoatkor bo'lishlari va birinchi navbatda uy va oilaga g'amxo'rlik qilishlari kerak deyiladi. Ayollar ishga joylashishda ham gender diskriminatsiyasiga duch kelishadi, bu esa ularni erkaklarga yanada qaram qiladi. Gender asosidagi zo'ravonlik, xususan, oiladagi zo'ravonlik ko'plab ayollar hayotining bir qismidir va ayollar eng ko'p zo'ravonlikka uyda duch kelishadi: O'zbekistonda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikning 80% dan ortig'i uy sharoitida sodir bo'ladi. Bundan tashqari, erta va kelishuv asosidagi nikohlar yosh qizlarga o'g'il bolalarga nisbatan nomutanosib ta'sir ko'rsatib, ularni ko'plab imkoniyatlardan, jumladan, ta'lim va ish bilan ta'minlashdan mahrum qiladi va ularni uy sharoitiga bog'lanib qolishlariga sabab bo'ladi.

Mamlakat kundalik hayotining barcha jabhalarida gender nomutanosibligi ayollarning OIV yuqishi, diagnostikasi va davolash haqida bilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli O'zbekistonda



OIV bilan bog'liq muammolarni hal qilishda gender jihatlarini hisobga olish zarur. UNAIDSning O'zbekistondagi ofisi tomonidan maslahatlashuv jarayonining bir qismi sifatida tayyorlangan ushbu hisobot O'zbekistonda OIVga qarshi choralar gender nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, siyosat va amalga oshirishdagi xususiyatlar va kamchiliklarni aniqlaydi hamda OIV infeksiyasining oldini olish maqsadida, diagnostika va davolash bo'yicha tavsiyalar beradi. Hisobotda, shuningdek, stigma va diskriminatsiya haqidagi ma'lumotlar yetishmovchiligini qoplash va o'quvchilarga O'zbekistonda OIV bilan yashash nimani anglatishini va bunday odamlarning kundalik hayotida duch keladigan to'siqlarni yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun "O'zbekistonda OIV bilan yashayotgan odamlarning hikoyalari" bo'limlarida tanlangan amaliy tadqiqotlarda taqdim etilgan.

## 1.2. GENDER BAHOLASHNI ASOSLASH


Gender tengligi butun dunyoda barqaror rivojlanishga erishishning asosiy omillaridan biri deb faraz qilsak, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va qashshoqlikni kamaytirish sohalarida gender tengsizligi va OIV epidemiyasi o'rtasidagi bog'liqlik aniq bo'ladi. O'zbekiston jamiyati jadal sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan bir paytda, gender tengsizlik odamlarning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Natijada, milliy ijtimoiy-madaniy me'yorlar, gender muvozanati va rollarini hisobga olmasdan turib O'zbekistonda OIVga qarshi choralarini tahlil qilish mumkin emas. Shu bilan birga, gender tengligini ta'minlamasdan, jinsiy va reproduktiv salomatlik va huquqlarni, ayniqsa, ayollar va aholining muhim guruhlari uchun mustahkamlamasdan turib, OIV epidemiyasini samarali va aniq hal qilish va OIV yuqish xavfini kamaytirish mumkin emas. Shu sababli, gender tengsizlik, gender zo'ravonlik bilan bir qatorda OIV tarqalishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda OIVga qarshi choralarining ushbu gender bahosi O'zbekistonda OIVga qarshi choralar jarayonini gender nuqtai nazaridan tushunish uchun keng qamrovli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga hamda sog'liqni saqlash va OIVga qarshi siyosat, strategiyasi va ish rejalarini ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish uchun zarur tavsiyalarni, shuningdek, vaziyatni yaxshilash chora-tadbirlarni taqdim etishga qaratilgan.

## 1.3. GENDER BAHOLASHDA TO'SIQLAR

Tegishli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish gender baholash jarayonining asosiy vazifasi edi. Ba'zi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi va boshqa manfaatdor tomonlarning veb-saytlarida onlayn rejimda mavjud bo'lsa-da, OIV bilan bog'liq aniq ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun jins va yosh bo'yicha barcha kerakli ma'lumotlarni olish imkonsiz yoki qiyin edi. Shuningdek, O'zbekistonda stigma indeksi baholanmaganligi uchun mavjud va ehtimoliy stigma va diskriminatsiyaga oid ma'lumotlarni olish mutlaqo mumkin emas edi.



## 2-BOB: OIV MILLIY EPIDEMIYASI HAQIDA

## 2.1. OIVNI YUQTIRIB OLIISH VA UNING TARQALGANLIGI

### 2.1.1. O'ZBEKISTONDA OIV BILAN YASHOVCHI ODAMLAR

2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 45 296 nafar OIV bilan yashayotgan shaxs davlat ro'yxatidan o'tgan. Ayollar OIV bilan yashayotganlarning 45%ini tashkil qiladi (20 584)<sup>14</sup>. Bundan tashqari, sil kasalligi bilan yashaydigan odamlardan 495 kishi OIV musbatli tashxisga ega<sup>15</sup>.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi xabariga ko'ra, OIV infeksiyasini yuqtirish darajasidagi gender nomutanosibligi mintaqaviy va ichki migratsiyaning endemik omillari bilan bog'liq, chunki aynan erkaklar asosan xorijga safarga boradilar va birdaniga O'zbekistonda ijtimoiy bosim va stigmatizatsiyaga qarshi immunitetga ega bo'ladilar, shuningdek, asosan erkaklar chet elda noto'g'ri turmush tarziga berilishi orqali OIVni yuqtirib olishadi va vatanga qaytishlari bilan oila a'zolariga OIVni yuqtirishadi<sup>16</sup>. Ishsizlik darajasini yuqoriligi (2020-yilda 10,5%) sabab O'zbekistonda mehnat migratsiyasi ustunlik qilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil holatiga ko'ra, birgina Rossiya Federatsiyasida 1,8 million o'zbekistonlik mehnat migranti sifatida ro'yxatga olingan<sup>17</sup>.

### 2.1.2. OIVNI YUQTIRIB OLIISH VA UNING TARQALGANLIGI

Oxirgi 8 yil ichida O'zbekistonda OIV bilan yashaydigan odamlar soni 2014-yildagi 28 250 kishidan 2022-yilda taxminan 45 000 kishiga yetdi, xuddi shu davrda kuzatilgan demografik o'sish tendensiyasiga mos ravishda.

#### 1-RASM


2014-2022 yillarda O'zbekistonda OIV bilan yashaydigan odamlar soni mamlakat umumiy aholi soniga nisbatan<sup>18</sup>.



OIVning eng yuqori konsentratsiyasi Toshkent shahri (2020-yilda 10 484 nafar OIV bilan yashaydigan odamlar), Toshkent viloyati (6 560), Andijon (6 870) va Samarqand (4 080) viloyatlarida qayd etilgan. OIV ko'proq shaharlarda va aholi zich joylashgan hududlarda tarqalgan. Masalan, 2022-yil holatiga ko'ra, aholi zichligi Toshkent viloyatida 194,3 kishi/km<sup>2</sup>, Samarqand va Andijon viloyatlarida mos ravishda 240,3 va 756,2; Toshkent shahrida 6379,1 kishi/km<sup>2</sup>ga yetadi<sup>19</sup>. Shaharlarda, ayniqsa, Toshkentda, aholining qishloqdan shaharga ish izlab ko'chib borishi sababli OIV infeksiyasining tarqalishida ichki migratsiya ham muhim rol o'ynaydi.

## 2-RASM

O'zbekistonda hududlar bo'yicha OIVning tarqalishi, 2020-yil



Bir necha yillik barqaror o'sishdan so'ng, yangi OIV infeksiyalari soni 2016-2019 yillarda har yili 4000 dan ortiq yangi holatlardan 2021-yilda 3289 tagacha kamaydi. 2020-yildagi pasayishlarni tahlil qilishda O'zbekistonda 2020-yil 15-martda boshlangan va 2020-yilning mart-avgust oylari oralig'ida ikkita umummilliy karantinga sabab COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq holatni hisobga olish kerak. Karantin paytida fuqarolarga favqulodda vaziyatlar yoki oziq-ovqat xarididan tashqari uylarini tark etishlari taqiqlangan, bu OIV borligiga shubhada bo'lgan ko'pchilik odamlarni OIV testdan o'tmaslik yoki testni kechiktirish uchun sabab bo'lgan.

## 1-JADVAL

O'zbekistonda 2016-2021 yillarda OIV infeksiyasining yangi holatlari

Yillar	2016	2017	2018	2019	2020 <sup>20</sup>	2021 <sup>21</sup>
Yangi OIV holatlari soni	4 223	4 229	4 340	4 185	3 118	3 289

So'nggi 3289 ta yangi OIV holatlarining 1991 tasi erkaklar va 1298 tasi ayollarga to'g'ri keladi<sup>22</sup>.

Respublikada OIV bilan infeksiyalanish 100 ming aholiga 9 kishini tashkil etadi, hududlar bo'yicha eng yuqori infeksiyalanish darajasi esa Toshkent shahrida (18,7)<sup>23</sup>. 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan



erkaklarda OIVning tarqalishi ulushi 0,01% ni, shu yosh kategoriyasidagi ayollar orasida esa ancha pastroq - 0,008.

### 2.1.3. OITS BILAN BOG'LIQ KASALLIKLARDAN O'LIM

O'zbekistonda 1 987-yilda OIV infeksiyasining birinchi holati qayd etilganidan buyon o'tgan 15 yil davomida OITS bilan bog'liq kasalliklardan yiliga 100 dan kam odam vafot etgan. 2003-yildan keyin epidemiya o'sdi va OITS bilan bog'liq kasalliklardan o'lim soni ham keskin ko'paydi. OIV bilan yashaydigan odamlarning jami jami 23 582 nafari OITS bilan bog'liq kasalliklardan vafot etdi, shu jumladan 2021-yilning o'zida 1 550ta OIV bilan yashaydigan odamlarda OITS bilan bog'liq kasalliklardan o'lim holatlari qayd etilgan – bu 2017-yildagi ko'rsatkich (1 900 nafar)ga nisbatan sezilarli darajada kamayganligini ko'rsatadi<sup>24</sup>. 2021-yilda vafot etgan 1 550 kishining 37%i ayollardir (262 nafari OIV bilan bog'liq kasalliklardan va 319 nafari OITS bilan bog'liq kasalliklar tufayli).

OITS bilan bog'liq kasalliklardan o'lim ko'rsatkichi asosan 40 yoshdan oshgan OIV bilan yashaydigan odamlar orasida kuzatiladi (quyida ajratilgan ma'lumotlarga qarang)<sup>25</sup>.

#### 2-JADVAL

O'zbekistonda 2022-yilda OITS bilan bog'liq kasalliklardan vafot etganlar soni

Yosh bo'yicha guruhlar	O'lim holatlari soni (ayollar) 2021- yilda	O'lim holatlari soni (erkaklar) 2021- yilda
0-3	1	0
4-6	0	1
7-14	3	11
15-17	25	27
18-24	13	7
25-29	12	8
30-34	15	30
35-39	52	40
40-49	125	152
50-59	46	98
60 va undan katta	27	44

### 2.1.4. AHOLINING MUHIM GURUHLARI VA OIVNING YUQISH YO'LLARI

UNAIDS erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'lgan erkaklar, rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslar va inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi odamlar, ularning sheriklari va oila a'zolarini aholining muhim guruhlarini sifatida belgilaydi, chunki ular katta ehtimol bilan OIV ta'siriga uchrashi mumkin. Shu bilan birga, boshqa guruhlar, masalan, migrantlar va yoshlar aholining muhim guruhlarini bir qismi bo'lmasa ham, ular xavfli xatti-harakatlarga moyil bo'lganligi sababli, hali

ham OIV dasturlari va xabardorligini oshirishda ishtirok etadilar. Eng so'nggi hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda 29 mingga yaqin shaxslar rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatadi (2014-yilda bu ko'rsatkich 21 mingga teng bo'lgan) va 39 mingga yaqin shaxslar (2013-yil 46 ming bo'lgan) inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiladi.

### 3-JADVAL

O'zbekistonda 2013-2021 yillardagi aholinig asosiy guruhlarida profilaktika dasturlarining qamrovi.

Aholining muhim guruhlarida prezervativlardan foydalanish	2013	2015	2017	2021 <sup>26</sup>
Inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi odamlar	47%	45.1%	72.9%	51.6%
Rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi odamlar	80.6%	78.5%	80.9%	82.8%
Aholining muhim guruhlarida profilaktika qamrovi	2013	2015	2017	2021
Inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi odamlar	68%	70.4%	77%	75.2%
Rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi odamlar	66.5%	69.6%	75.7%	67.4%
Oxirgi inyeksiya vaqtida sterillangan asboblardan foydalanish	2013	2015	2017	2021
Inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi odamlar	80%	85.1%	89.2%	85.9%

Rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslar orasida OIV tarqalishi 1,27%ni tashkil qiladi, bu 2018-yildagi 3,2%dan 60% kam. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil holatiga ko'ra, rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning 82%i o'zlarining oxirgi mijozlari bilan prezervativdan foydalanganlar<sup>27</sup>.

“OIV bilan bog'liq stigma OIV bilan yashovchi odamlar hayotning barcha sohalariga ta'sir qiladi. Bu odamlarning [OIV bilan yashovchi odamlar] boshqacha ekanligini, [OIV bilan yashashini] sharmandalik ekanligini stigmatizatsiya qiladi... Stigma OIV bilan yashovchi odamlarga, ularning oilalariga va OIV epidemiya ta'sir ko'rsatgan barcha odamlarga nisbatan kamsituvchi, ba'zan hatto tajovuzkor munosabatda namoyon bo'ladi”, — aniqlik kiritadi mahalliy mutaxassis.

#### O'zbekistonda OIV bilan yashayotganlar haqida hikoyalar – Baxtiyor<sup>28</sup>

Baxtiyor mahalliy kompaniyada direktorning shaxsiy haydovchisi bo'lib ishlagan. Direktor Baxtiyorning giyohvand moddalarni iste'mol qilgani uchun qamoqxonada jazo o'taganini bilgach, Baxtiyordan o'z xohishi bilan iste'foga chiqish to'g'risida ariza yozishini so'radi, chunki u o'z korxonasida sobiq mahbuslarning, ayniqsa giyohvand moddalarni iste'moli uchun jazo o'tganlarning ishlashini istamagan. Aks holda, direktor uni ishdan bo'shatish uchun sabab topa olishini ham aytdi. Baxtiyor ishdan ketishga majbur bo'ldi.


Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil holatiga ko'ra, inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar orasida OIV tarqalishining taxminiy ulushi 2,9%ni tashkil etadi, bu 2018-yildagi 5,1%ni tashkil etgan ko'rsatkichdan 43%ga kam<sup>29</sup>. 2021-yil holatiga ko'ra, inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslarning taxminan 85,9%i oxirgi inyeksiya uchun sterillangan

asbob-uskunalardan foydalangan va faqat 51,6%i boshqa odamlar bilan jinsiy aloqada bo'lganida prezervativlardan foydalangan<sup>30</sup>.


Giyohvandlik, ayniqsa, yoshlar orasida dolzarbdir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda yoshlar orasida 5 889 nafar giyohvandlik holatlari aniqlangan. Biroq, bu raqam o'n barobar ko'p bo'lishi mumkin degan taxminlar mavjud. Davlat ro'yxati bo'yicha giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan yoshlarning aksariyati Andijon (1232 ta) va Farg'ona (1093 ta) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (1188 ta) istiqomat qiladi<sup>31</sup>. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, o'zbek yoshlarida "an'anaviy giyohvandlik vositalari" o'rniga psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalarga qiziqish kuchaymoqda<sup>32</sup>. Tramadol va yangi tropikamid preparatlari keng tarqalgan bo'lib, ayrim yoshlarni jinoyatga qo'l urishiga olib kelmoqda. Hozirda ushbu guruhning gender jihatlari bo'yicha bo'lingan ma'lumotlar yo'q. Ma'lumki, 2007-2021 yillarda ayollarning giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarda ishtiroki 12%dan 3,4%gacha kamaygan: 2020-yilda giyohvandlik bilan bog'liq 4722 jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 3 403 nafar erkaklarga nisbatan atigi 120 nafar ayol javobgarlikka tortilgan<sup>33</sup>.

### 3-RASM

2007-2021 yillarda O'zbekistonda giyohvand moddalar jinoyati sodir etganlar orasida ayollar ulushi foizlarda.



Mavjud ishonchli ma'lumotlarning deyarli to'liq yo'qligi sababli mahbuslar orasida OIVning tarqalishi haqidagi bahslarni yanada kuchaytiradi. 2022-yil holatiga ko'ra, mamlakatda 54 ta axloq tuzatish muassasasi mavjud bo'lib, ularda 29 000 dan ortiq mahbuslar bor<sup>34</sup>. Bu 2014-yilda BBC qamoqxonalarda 64 000 mahbus borligini xabar qilganga nisbatan keskin pasayishdir<sup>35</sup>. Mahbuslar soni bo'yicha ham jins, ham yosh bo'yicha ajratilgan ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, ijtimoiy-madaniy me'yorlarni inobatga olsak, masalan, qizlar ota-onalari tomonidan nihoyatda xushmuomala qilib tarbiyalanishi va ayollarning umumiy jinoyatchilik darajasidagi ulushi, ayol mahbuslar soni erkak mahbuslarga nisbatan ancha kam. 2021–2022 yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan so'nggi ko'p ko'rsatkichli klaster tadqiqotlariga ko'ra, 18–19 yoshli qizlarning 37% va 15–49 yoshli ayollarning 40% ayrim sabablarga ko'ra ayolni urishni oqlashadi. Bu sabablar orasida ayolning uydin eridan ruxsat so'ramay chiqishi, bolalarga qaramasligi, eriga e'tiroz bildirsa, eriga jinsiy yaqinlikda rad etsa va tayyorlagan ovqatlarini kuydirib yuborishi kabi holatlar bor<sup>36</sup>. Ma'lumotlar iqtisodiy sharoitlar va shahar hamda qishloq joylariga qarab farq qiladi, boyroq (29%) va kambag'al (44%) oilalar o'rtasida kuchli tafovut mavjud, ammo kamida har uchinchi ayol shunday fikrga ega.




#### 4-RASM

Oiladagi zo'rvonlikka munosabat: er agar xotini unga aytmasdan uydan chiqib ketsa, parvo qilmasa, bolalarga nisbatan beparvo bo'lsa, unga e'tiroz bildirsa, eriga jinsiy yaqinlikda rad etsa, tayyorlagan ovqatlarini kuydirib yuborsa o'z xotinini kaltaklash huquqiga ega deb hisoblaydigan 15-19 yoshdagi qizlarning yosh guruhlari bo'yicha nisbati



#### 5-RASM

Er agar xotini unga aytmasdan uydan chiqib ketsa, parvo qilmasa, bolalarga nisbatan beparvo bo'lsa, unga e'tiroz bildirsa, eriga jinsiy yaqinlikda rad etsa, tayyorlagan ovqatlarini kuydirib yuborsa o'z xotinini kaltaklash huquqiga ega deb hisoblaydigan ayollarning foiz nisbati.



Ushbu tushuncha bilan va jinoyatchilikning umumiy darajasida ayollarning ulushini hisobga olgan holda, ayol mahbuslar erkak mahbuslarga nisbatan sezilarli darajada kamroq ekanligini taxmin qilish adolatli ko'rinadi. Bundan tashqari, jinoiy faoliyatga jalb qilingan ayollarning ulushi erkaklarnikiga nisbatan ancha past. 2021-yilda O'zbekistonda sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 12,2%ini (2007-yilda 14,8%) ayollar sodir etgan, jumladan, qotillik va odam o'ldirishga suiqasd qilishning 10,9%ini, zo'rlashning 1,2%ini, o'g'irlikning 13,7%ini va firibgarlikning 16,1%ini ayollar sodir etgan. Shu bilan birga, so'nggi 15 yilda jinsiy zo'rlash, tovlamachilik va o'g'irlik jinoyatlarini sodir etgan ayollar salmog'i biroz oshgan bo'lsa, boshqa turdagi jinoyatlar bo'yicha ham bu ko'rsatkich kamaygan. Masalan, ayollarning firibgarlikdagi ulushi 2007-yildagi 24,6%dan 2021-yilda 16,1%ga, talonchilikda esa 5,2%dan 4,5%ga kamaygan<sup>37</sup>.

## 6-RASM

O'zbekistonda 2007-2021 yillarda jinoyat sodir etgan ayollar ulushi foizlarda




	2007	2010	2015	2021
Umumiy	14.8	16.8	16.2	12.2
Qasddan odam o'ldirish va o'ldirishga suiqasd qilish	10.5	10.7	10.2	10.9
Badanga qasddan og'ir jarohat yetkazish	10.8	10.5	8.4	6.4
Tovlamachilik	10.8	14.8	22.4	25.4
Nomusga tegish va nomusga tegishga urinish	0.4	0.6	1.2	1.2
O'g'irlik	7.1	10.3	10.8	13.7
Talonchilik va bosqinchilik	5.2	5.4	6.8	4.5
Firibgarlik	24.6	28.3	21.5	16.1
Bezorilik	11.7	13.7	11.5	8.6
Giyovand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar	12.0	9.3	6.8	3.4
Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar	18.9	17.0	16.9	12.3
Boshqa turdagi jinoyatlar	15.6	17.9	18.1	11.8

Jinoyatlarning turlari va chastotasi bo'yicha mavjud ajratilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holda, shuningdek, mahbuslarning aksariyati 31 va undan katta yoshdagilar ekanligini taxmin qilish mumkin, chunki so'nggi 15 yil ichida ushbu yosh guruhi jinoyatchilarning kamida 60%ini tashkil qiladi. 2021-yilda O'zbekistonda sodir etilgan 111 082 jinoyatning 62%ini 31 yoshdan oshgan shaxslar, 18%ini esa 16 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir etilgan<sup>38</sup>.

## 7-RASM

Jinoyat sodir etgan shaxslar, yosh guruhlari bo'yicha foizlarda (O'zbekiston, 2021-yil)



1.1-bo'limda aytib o'tilganidek, so'nggi o'n yil ichida OIVning jinsiy yo'l bilan yuqish darajasi dominant yuqish usuli sifatida inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qilish orqali yuqish darajasidan "o'zib ketdi". O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya xizmati markazining mavjud so'nggi ma'lumotlariga (2022-yil 1-yanvar holatiga) ko'ra, 2021-yilda ro'yxatga olingan OIV infeksiyasining 70%dan ortig'i jinsiy yo'l bilan yuqtirilgan<sup>39</sup>.

OIV infeksiyasining vertikal ravishda yuqishi bilan bog'liq jami 740 ta holat qayd etilgan bo'lsa-da, 2015-yildan buyon OIV bilan yashaydigan ayollar farzandlarining 98-99%i sog'lom tug'iladi. Har yili OIV bilan yashaydigan ayollarda 550-600 bola tug'iladi. Hukumat onalarga olti oy davomida bolalar quruq sut aralashmasi va OIV yuqishining oldini olish uchun dori-darmonlar bilan yordam beradi<sup>40</sup>.

## 2.2. GENDER IJTIMOY-MADANIY ME'YORLARI VA AMALIYOTLARI OIVNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI SIFATIDA

O'zbekistondagi OIV bilan bog'liq vaziyatni tushunish uchun milliy ijtimoiy-madaniy sharoitlarni va bu sharoitlar gender tengsizlikni qanday shakllantirayotganini hamda ayollar va qizlarni OIVga nisbatan zaifroq qiladigan omillarni o'rganish lozim. Ushbu ijtimoiy-madaniy me'yorlar va amaliyotlar patriarxal xususiyatga ega bo'lib, ayollarning roli va xatti-harakatlariga nisbatan yuqori umidlarni keltirib chiqarayotgan mahalliy an'analarda chuqur ildiz otgan bo'lib, bu esa pirovardida gender tengsizligining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

### **Bilim va ma'lumotlar, shu jumladan jinsiy tarbiyaga oid ma'lumotlarning yetishmasligi.**


So'nggi yigirma yil ichida O'zbekiston OIVning yuqishi, diagnostikasi va davolash haqida aholining xabardorligini oshirish majburiyatini oldi. Biroq, mavjud bo'lingan ma'lumotlar yo'qligi sababli jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalarining muvaffaqiyatini o'lchash qiyin. Ayollarning erkaklarnikidan farqli o'laroq, aniq xabardorlik darajasini aniqlash mumkin emas. Biroq, ushbu hisobotda tasvirlangan patriarxal madaniyatni hisobga olgan holda, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda erkaklarga nisbatan ayollarda OIV haqida yuqori darajada xabardorligi kamroq ekanligini taxmin qilish mumkin. O'zbekiston hukumati ijtimoiy media platformalari, televideniye va radiolarning OIV haqida xabardorlikni oshirishda ishtirokini va internetda yetarli ma'lumotlarni taqdim etishini ta'minlash majburiyatini olgan bo'lsa-da (qarang: Milliy dasturlar: Amalga oshirish va foydalanish imkoniyati), bu targ'ibot yetarli bo'lmasligi mumkin. Qishloq joylarida shaharlardagi kabi yetarli internet qamrovi mavjud emas. Bundan tashqari, shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi ish

haqi va yashash narxidagi farq qishloq joylarida ko'plab odamlar uchun Internetga kirish imkoniga to'siq bo'lmoqda; shuningdek, ayollar uy xo'jaligida cheklangan moliyaviy avtonomiyalari tufayli nomutanosib ravishda ta'sir ko'rsatadi. Oxirgi MIKS 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollarning atigi 14%i OIV/OITS haqida to'liq bilimga ega ekanligini ko'rsatdi. Faqat 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yosh qizlarni hisobga olinsa, bu ko'rsatkich 10% gacha kamayadi. Bundan tashqari, shahar (14%) va qishloq (7%) o'rtasida sezilarli tafovut mavjud<sup>41</sup>.



## 8-RASM

Qizlar va yosh ayollar orasida (15-24 yosh) OIV profilaktikasi bo'yicha bilimlar: 15-24 yoshdagi ayollarning foizdagi ulushi: OIV yuqishining ikki usuli haqida xabardor bo'lgan; sog'lom ko'rinishda bo'lgan shaxs ham OIV bilan zararlangan bo'lishi mumkinligini bilgan; va OIV haqida uchta eng ko'p tarqalgan noto'g'ri tushunchalarga: 1) chivin chaqishi orqali yuqishi mumkinligi, 2) sehrgarlik yoki har qanday g'ayritabiiy yo'llar orqali yuqishi mumkinligi, va 3) OIV bilan yashaydigan shaxs bilan birgalikda ovqat yeyish orqali yuqishi mumkinligiga ishonmaydiganlar.



O'zbekistonda qizlarni voyaga yetganidan so'ng darhol – 18-19 yoshda turmushga berish an'anasi saqlanib qolgan, bu ayollarning erta turmushga chiqishini, jinsiy faolligini, lekin shu bilan bir paytda OIV epidemiyasi, uning xavf-xatarlari va o'zini qanday himoya qilish haqida juda kam ma'lumotga ega ekanligini anglatadi.

Maktablarda jinsiy tarbiyaga oid har tomonlama ta'lim yo'qligi ham yoshlarning OIV haqida bilim olish imkoniyatini cheklaydi. Boshlang'ich maktab o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan "Tarbiyanoma" darslarida, ayniqsa, xavfsiz jinsiy aloqa borasida har tomonlama jinsiy tarbiya berilmagan. An'anaviy madaniy me'yorlar ko'plab ijtimoiy muhitlarda, jumladan, oila va ta'lim muhitida xavfsiz jinsiy aloqa

haqida ochiq muhokamani cheklaydi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarni ishonchli manbalardan yoki o'z savollarini berish va kerakli ma'lumotlarni olish uchun xavfsiz muhitdan mahrum qiladi.

**Patriarxal me'yorlar** turli shakllarda bo'ladi, lekin ayollarning tanlovini eng ko'p cheklab qo'yadigan, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga va sog'liq muammolariga, shu jumladan OIVga duchor qiladigan sabablardan biri - qaror qabul qilish imkoniyati yo'qligidir. O'zbekiston bo'ylab ko'plab ayollar kundalik hayotda mustaqil ravishda qaror qabul qila olmaydi. Mutaxassislar og'ir kasalliklarga duchor bo'lgan yosh ayollar uydan chiqib, shifokorga murojaat qilish uchun hali ham erining ruxsat olishlariga majbur ekanliklari holatlari haqida xabar berishadi. Garchi istisnolar, ayniqsa shaharlarda, mavjud bo'lsa-da, umuman olganda, ayollar ko'p holatlarda erkaklar qarorlariga bog'liq bo'lib qoladilar. Aksariyat ayollar, ayniqsa, qishloq joylarida oila boshlig'ining ruxsati yoki nazorati bilan o'qishi, ishlashi, tibbiyot muassasalariga borishi va ijtimoiy hayot bilan shug'ullanishi mumkin.

**Gender zo'ravonlik va oilada zo'ravonlik.** Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik dunyo bo'ylab, jumladan, O'zbekistonda ham ko'plab ayollarning kundalik kurashining bir qismidir. Tadqiqotlar gender asosidagi zo'ravonlik va OIV o'rtasida bevosita bog'liqlik borligini ko'rsatdi. Genderga asoslangan zo'ravonlik va OIV xavfi o'rtasidagi bog'liqlik ma'lumot va xizmatlardan foydalanishda gender tengsizliklari orqali bilvosita bo'lsa-da, jinsiy zo'ravonlik OIV infeksiyasining yuqori xavfi bilan bevosita bog'liq<sup>42</sup>. 2018-2019 yillardan buyon O'zbekiston hukumati gender asosidagi zo'ravonlikni rasman kun tartibiga kiritdi, shundan so'ng oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollarni himoya qilish va qo'shimcha qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik choralari ko'rilgan.

Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashuvni yaxshilash, ayniqsa, oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirishni yaxshilash maqsadida 2018-yil 2-iyuldagi "Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-son qarori qabul qilindi. Prezident qaroridan so'ng 2019-yilda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlash, shuningdek, ayollarni zo'ravonlik va ta'qibdan himoyani ta'minlaydigan 2019-yil 2-sentabrdagi ikkita muhim qonun – "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi (O'RQ-561)<sup>43</sup> hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi (O'RQ-562)<sup>44</sup> qonunlar qabul qilindi. Yangi qonunchilikda "jismoniy zo'ravonlik", "psixologik zo'ravonlik" va "moliyaviy zo'ravonlik" tushunchalarining huquqiy ta'riflari, shuningdek, himoya farmoyishlarini chiqarish imkoniyati kiritildi. Bundan tashqari, 2020-yilda O'zbekiston hukumati tomonidan O'RQ-562 asosida ishlab chiqilgan 2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasi tasdiqlandi. Yangi qonunlar kuchga kirgandan beri O'zbekiston hukumati ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari bo'yicha ichki ishlar organlari xabar qilingan holatlar haqida ma'lumotlarni to'plamoqda; ammo, shuni hisobga olish kerakki, bunday holatning faqat kichik bir qismi haqida xabar berilgan. Ayollar ko'pincha oilada bosim va stigmatizatsiya tahdidlariga duch kelishadi, bu esa ularni ichki ishlar organlariga xabar berishdan bosh tortishga olib keladi. Shu sababli, O'zbekistonda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari soni qayd etilgan voqealar sonidan deyarli ko'p<sup>45</sup>.



## 9-RASM

O'zbekistonda 2020 va 2021-yillarda turli zo'ravonliklarni boshdan kechirgan ayollarga berilgan himoya orderlari soni.

	2020 <sup>46</sup>	2021 <sup>47</sup>
<b>Umumiy</b>	<b>14 774</b>	<b>39 343</b>
Psixologik zo'ravonlik	6 281	18 777
Jismoniy zo'ravonlik	6 836	13 658
Tazyiq	1 480	7 174
Iqtisodiy zo'ravonlik	121	234
Jinsiy zo'ravonlik	56	106

Biroq, 2021-yilda huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ayollarga nisbatan qariyb 40 000ga yaqin turli xil zo'ravonlik holatlari qayd etilgan bo'lib, ular orasida psixologik va jismoniy zo'ravonlik eng ko'p uchraydi. 2020-yilga nisbatan qariyb uch baravar o'sishni har taraflama tushuntirish mumkin:

- COVID-19ga qarshi chora sifatida kiritilgan cheklovlar tufayli, 2020-yilda ayollarning kamida bir qismi jismonan uylaridan chiqib va ichki ishlar organlariga murojaat qila olmadi. Shuningdek, Samarqand va Buxorodagi NNTlar tomonidan boshqariladigan ishlovchi ayollar uchun bir nechta boshpana muzlatib qo'yilgan va hatto birinchi karantin davrida boshpana so'ragan ayollarni qabul qila olmagan.
- Ayollarning zo'ravonlikdan himoya qilish tizimi haqida xabardorligi oshdi. Natijada, ko'proq ayollar o'zlariga nisbatan huquqbuzarliklar haqida ichki ishlar organlariga xabar berishmoqda.
- Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik, ayniqsa, oiladagi zo'ravonlik haqidagi xabarni oddiy "oilaviy masala"dan hal qilinishi kerak bo'lgan ijtimoiy muammoga o'tkazish ko'plab ayollarga gender asosidagi zo'ravonlik qurboni ekanliklarini tan olishlariga yordam berdi va ularni huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilishlariga yordam berdi.

**Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikning 80% dan ortig'i uy sharoitida sodir bo'ladi. Aksariyat hollarda aybdorlar ularning erlaridir.**

### **O'zbekistonda OIV bilan yashayotgan odamlar haqida hikoyalar – Feruza<sup>48</sup>**

Feruza turmush o'rtog'i bilan muammo tufayli o'z shahridagi OITS markaziga maslahat so'rab murojaat qildi. To'ydan oldin hammasi joyidadek bo'lib tuyulardi. Ular turmush qurishlari bilanoq, Feruzaning eri unga "qo'l ko'tara" boshladi. Feruza uzoq vaqt davomida erining birdaniga bunchalik tajovuzkor bo'lib qolganini, shuningdek, bir qancha g'alati xatti-harakatlarini, masalan, vannaxonada har kuni uzoq vaqt qolib ketishini tushuna olmadi. Oxir-oqibat, Feruza erining giyohvandlik bilan bog'liq muammosi borligini, erida OIV infeksiyasi borligini va unga ham OIV yuqtirganini aniqladi. Ishsiz qolgan Feruzaning turmush o'rtog'i uydin taqinchoqlarni o'g'iray boshlagan, bu esa yangi janjal va kaltaklashlarga sabab bo'lgan. Aynan shu payt Feruza

homilador edi. Unda OIV infeksiyasi borligi haqida kimdir bilib qolishidan uyalganligi sababli, u homiladorlik bo'yicha ro'yxatdan o'tishdan qo'rqardi. Bir kuni kechki payt Feruzaning eri unga tilla sirg'alarini berishini talab qilgan va bu navbatdagi janjalga sabab bo'lgan. Uning onasi qo'shni uyda yashardi va davom etayotgan janjalni eshitib, qizining uyiga yugurdi. Ichkariga kirganida qo'rqib ketdi - Feruza yerda hushsiz yotardi. Onasi tez yordam chaqirdi va Feruzani kasalxonaga yotqizishdi. U tuzalib ketdi, lekin bolasini yo'qotdi. Kasalxonadan chiqqan Feruza ota-onasining ko'chib o'tdi. Eri u bilan yarashishga harakatida unga qo'ng'iroq qilar va oldiga borar edi. Feruza birozdan keyin uni kechirdi va unga ikkinchi imkoniyat berdi. Afsuski, tez orada janjal va kaltaklar yana boshlandi. Feruza oxirgi marta bor kuchini yig'ib, erini tashlab ketdi, u bilan barcha aloqalarini uzdi. Vaqt o'tishi bilan u o'z hududidagi OITSGa qarshi kurash markaziga murojaat qilib, muntazam maslahat ola boshladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ayollar zo'ravonlik haqida xabar bermaslik va himoyaga murojaat qilmaslik holatlari juda ko'p. Bu ko'p jihatdan ijtimoiy-madaniy me'yorlarga bog'liq bo'lib, unda ayollar "oilaviy masala"ni oshkor qilishi va sabr qilmasligi sharmandalikka yoyiladi; ammo erlariga iqtisodiy qaramlik ham muhim rol o'ynaydi.

**Bolalar/yoshlar nikohi.** O'zbek jamiyatida yosh turmushga chiqish keng tarqalgan bo'lmasada, qizlarni imkon qadar erta turmushga chiqishni afzal ko'rishadi. Milliy qonunchilikka ko'ra, nikohlarini rasman ro'yxatdan o'tkazish uchun yigit ham, qiz ham kamida 18 yoshga to'lishi kerak (2019-yilgacha qizlar turmush qurishi uchun minimal yosh 17 yosh edi)<sup>49</sup>. Voyaga yetmagan qiz yoki voyaga yetmagan yigit bilan turmush qurish, yoki ota-ona voyaga yetmagan qizi turmushga bersa yoki o'g'lini uylantirsa (odatda nikoh deb ataladigan diniy marosim bilan), qonun bo'yicha jarima shaklida ma'muriy jazoga tortiladi. Takroriy hollarda faqat aqli raso voyaga yetgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi: Jinoyat kodeksining 125-moddasiga ko'ra, ular eng kam ish haqining 20 dan 30 baravarigacha jarimaga tortiladi<sup>50</sup> (1 eng kam ish haqi 2022-yil iyun holatiga ko'ra 30 AQSH dollaridan sal kamroq), 240 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlariga jalb qilinadi. Qonun va belgilangan jazo choralari qaramay, ota-onalar, ayniqsa, qishloq joylarda haligacha qizlarini 15-17 yoshida turmushga berishadi. Huquqiy oqibatlariga yo'l qo'ymaslik uchun har ikkala turmush o'rtoqlar voyaga yetgunga qadar nikoh rasmiy ravishda ro'yxatga olinmaydi. Ayollarning o'rtacha turmush qurish yoshi qishloq va shaharlarda 22 yoshdan sal ko'proq, erkaklar esa o'rtacha 26,5 yoshda turmush qurishadi. 18 yoshga to'lmasdan turmushga chiqadigan qizlar soni kamayib borayotgan bo'lsa-da, har yili kam sonli erta turmush qurish holatlari kuzatilmoqda<sup>51</sup>.

**2021-yilning o'zida**

**93 000dan**  
ortiq qizlar 18-19 yoshida  
turmushga chiqdi,  
bu 2015-yildagi  
61 000 nafarga nisbatan  
50%ga ko'proqdir<sup>52</sup>.

**18 yoshgacha turmushga chiqayotgan qizlar soni kamayib borayotgan bo'lsa-da, har yili kam sonli erta turmush qurish holatlari kuzatilmoqda.**

Shu asosda keyingi paytda majburiy o'rta ta'lim bolalar va voyaga yetmaganlar nikohining oldini olish va nazorat qilishning samarali vositasiga aylandi. Garchi ko'plab mahalliy aholi uchun nikohni ro'yxatga olish qizlarini turmushga berish kabi muhim bo'lmasada, ma'muriy yoki huquqiy javobgarlik xavfi ota-onalarning erta nikohni qayd etishiga samarali to'siqdir. Ta'lim muhiti himoyaning bir qatlamini

qo'shadi: qizlar turmushga chiqqanda, maktab ma'muriyati oxir-oqibat voyaga yetmaganlarning nikohini bilib qoladi va ichki ishlar organlariga xabar berishi mumkin. Biroq, an'anaga ko'ra, kelinlar qaynona-qaynota xizmatida bo'lishi kerak, bu esa ularni maktabga borishiga to'sqinlik qilishi hamda ota-onalar uchun qo'shimcha ma'muriy muammolarni keltirib chiqaradi.

Odatda, huquqni muhofaza qilish organlari bilan bog'liq muammolarga duch kelmaslik uchun ota-onalar qizlarni hali o'qish davrlarida unashtirib, lekin nikoh to'yi va diniy marosimlarni (nikoh) o'tkazishni, faqat bo'lajak er-xotinning ikkalasi ham o'rta ma'lumotli olganlaridan keyingina amalga oshiradilar.

Erta nikohlarning oldini olish va monitoring qilishda ta'limning roli haqida O'zbekistondagi 20 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollar bo'yicha MJKSning so'nggi ma'lumotlari dalolat beradi: 20 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan o'rta ma'lumotli ayollarning 13%i 18 yoshga to'lgunga qadar rasmiy yoki norasmiy tarzda turmush qurgan, holbuki, xuddi shu yosh guruhidagi oliy ma'lumotli ayollarning atigi 3%i voyaga yetmasdan turmushga qurgan<sup>53</sup>.

**Erta homiladorlik.** O'zbekistonda o'smirlikda homiladorlik uchrab turadi. Er-xotinlardan yoki turmushga chiqmagan qizlardan farzandlar tug'ilishi haqida ma'lumot yo'q bo'lsa-da, 2021-yilda 18 va undan kichik yoshdagi 9 000dan ortiq qizlar farzandli bo'ldi. O'smirlardan tug'ilishning ko'pchiligi Samarqand, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida qayd etilgan<sup>54</sup>. O'zbekistonda 2021-yil holatiga ko'ra 15 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan qizlar orasida tug'ish koeffitsienti geoiqtisodiy va boshqa sharoitlarga qarab har xil ko'rsatkichlarga ega bo'lgan shu yoshdagi har 1000 nafar ayolga 30 bolani tashkil etadi.


## 10-RASM

O'zbekistonda 18 yosh va undan kichik yoshdagi onalar soni.

Hududlar	18 va undan kichik yoshdagi onalar soni	Hududlar	18 va undan kichik yoshdagi onalar soni
O'zbekiston Respublikasi	9 153	Samarqand viloyati	1 820
Qoraqalpog'iston Respublikasi	322	Surxondaryo viloyati	694
Andijon viloyati	798	Sirdaryo viloyati	143
Buxoro viloyati	472	Toshkent viloyati	730
Jizzax viloyati	255	Farg'ona viloyati	1 078
Qashqadaryo viloyati	1 149	Xorazm viloyati	264
Navoiy viloyati	121	Toshkent shahri	441
Namangan viloyati	866		

## 11-RASM

So'rovdan oldingi uch yillik davrda 15-19 yoshdagi qizlar orasida tug'ish koeffitsienti.



**Ikkinchi xotinlar va ro'yxatdan o'tmagan nikohlar.** O'zbekiston fuqarolarining aksariyati o'zini musulmon deb hisoblaydilar. Sovet hokimiyati davrida yetmish yillik ateizmdan so'ng O'zbekiston islom dini qayta tiklanganiga guvoh bo'ldi. Bu uyg'onish davri ko'pxotinlilik amaliyotini olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-moddasiga ko'ra, "Ko'p xotinli bo'lish" - jarima yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Biroq, haqiqat shundaki, ko'plab ajrashgan va beva qolgan ayollar uchun ikkinchi xotin bo'lish oila qurish uchun yagona imkoniyatdir, chunki turmushga chiqmagan, bokira qizlarga ustunlik beriladi. Hatto ajrashgan erkaklar ham yoshroq, bokira xotin izlaydilar. Moliyaviy qiyinchiliklar, ijtimoiy bosim va jamiyatdagi stigma bilan kurashayotgan ajrashgan va beva ayollar yashirincha turmush qurishadi<sup>56</sup>. Ushbu nikohlar norasmiy va diniy jihatdan bog'liq bo'lganligi sababli, er-xotinlar tibbiy ko'rikdan, shu jumladan OIV testi o'tishlari shart emas. Mutaxassislar qayd etilmagan nikoh amaliyoti OIV yuqtirish xavfini oshirishini tasdiqlaydi<sup>57</sup>.

## 2.3. IJTIMOIIY-IQTISODIY GENDER TENGSIZLIK

O'zbekiston – 2022-yil iyul holatiga ko'ra 35,6 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan Markaziy Osiyodagi eng zich joylashgan davlat hisoblanadi. Ayollar deyarli yarmini tashkil qiladi va aholining 17,6 millioni (17,9 million erkaklarga nisbatan)<sup>58</sup> va ularning deyarli yarmi - 8,1 millionning yoshi 15 dan 44 yoshgacha<sup>59</sup>.

O'zbekiston 2019-yilda Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) qiymati 0,720 (indeks bo'yicha 106-o'rin) bilan inson taraqqiyoti darajasi yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan joy olgan bo'lsa-da, hali ham aholi jon boshiga yalpi milliy daromadi (YAMD) 2021-yil holatiga ko'ra 1960 AQSH dollariga teng bo'lgan o'rta daromad darajasi pastroq mamlakatlar qatorida<sup>60</sup>. Ayollar (0,695) va erkaklar (0,740) inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farq bor, umumiy Gender rivojlanish indeksi (GRI) koeffitsiyenti 0,939 bo'lib, O'zbekistonni 3-guruhga joylashtirgan<sup>61</sup>. Taqqoslash uchun qo'shni

O'zbekiston umumiy GRI 1,006 bilan 1-guruhda, Qirg'iziston va Tojikiston esa mos ravishda 0,957 va 0,823 GRI koeffitsiyentiga ega<sup>62</sup>.

## GRI inson rivojlanishining uchta asosiy yo'nalishi - sog'liqni saqlash, ta'lim va iqtisodiy resurslarni boshqarish bo'yicha tengsizliklarni o'lchaydi.

### Sog'liqni saqlash tizimi

Salomatlik holatidagi nomutanosiblik "tug'ilishda erkaklar va ayollarning umr ko'rish davomiyligi" bilan o'lchanadi<sup>63</sup>. O'zbekistonda 2022-yilda tug'ilganda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 73,8 yoshni tashkil etadi – ayollar uchun 75,8 yosh, erkaklar uchun 71,7 yosh<sup>64</sup>. Ayollarda tug'ilishda kutilayotgan umr ko'rish ko'proq bo'lsa-da, ba'zi sog'liq muammolari ayollarda ko'proq uchraydi (masalan, bachadon bo'yni saratoni bo'yicha 2.2.6 bo'limga qarang). Xavfli o'smalar ayollarda erkaklarga qaraganda tez-tez uchraydi - har 100 000 ayollarning 86 tasida, har 100 000 erkaklarning 59,2 tasida. Ayollarda neoplazmalardan o'lim darajasi ham erkaklarnikiga qaraganda yuqori: 2021-yilda har 100 000 ayolga 41,8 o'lim, 100 000 erkakka 36 tasi to'g'ri keladi, jami 7 253 ayol va 6 321 erkak vafot etgan<sup>65</sup>.

### 12-RASM


2013-2021 yillarda O'zbekistonda o'smalardan vafot etgan odamlar soni.



Ayollar



Erkaklar



Sil bilan kasallanish barqaror ravishda kamayib borayotgan bo'lsa-da, ayollar erkaklarnikiga nisbatan nomutanosib ravishda sil bilan ko'proq kasallanishadi: ayollar orasida sil bilan kasallanishning pasayishi erkaklarnikiga qaraganda sekinroq: 2007-yildan 2021-yilgacha ushbu ko'rsatkichlar har 100 000 ayolga 55,3 dan 35,9 gacha va har 100 000 erkakga 79,6 dan 32,9 gacha kamaygan<sup>66</sup>.

### 13-RASM



O'zbekistonda 2007-2021 yillarda har 100 000 aholiga nisbatan birinchi marta qayd etilgan faol sil kasalligi.



Ayollar



Erkaklar



OIV bilan yashovchi ayollar boshqa ayollarga qaraganda bachadon bo'yni saratoniga olib keladigan inson papilloma virusi (OPV) bilan kasallanish ehtimoli ko'proq. Dunyo miqyosida bachadon bo'yni saratoni bilan kasallangan ayollarning 6%i ham OIV bilan yashaydi, bachadon bo'yni saratoni bilan kasallanganlarning 5%dan kamrog'i esa OIV sabab bo'ladi<sup>67</sup>. Har yili taxminan 311 000 odam bachadon bo'yni saratonidan vafot etadi, ularning 90%i past va o'rta daromadli mamlakatlarda<sup>68</sup>. O'zbekistonda har yili 1660 nafar ayolda bachadon bo'yni saratoni tashxisi qo'yilib, 585 nafar ayol undan vafot etgan<sup>69</sup>. Bachadon bo'yni saratoni va ko'krak bezi saratoni O'zbekiston ayollari orasida mavjud saraton kasalliklarining 40%dan ortig'ini tashkil qiladi<sup>70</sup>, 2020-yilda esa 840 nafar ayol bachadon bo'yni saratonidan vafot etgan (mamlakatdagi barcha o'limlarning 0,52%ini tashkil etgan<sup>71</sup>.

JSST va UNICEF ko'magida 2019-yilda O'zbekistonda OPVga qarshi vaksina milliy emlash rejasiga kiritildi va 12–14 yoshli qizlarning 94%i kamida birinchi doza bilan emlandi<sup>72</sup>.

### Ta'lim tizimi

Ta'lim darajasi qiz va yigitlar hamda kattalar uchun o'qish yillari soni bilan o'lchanadi. O'zbekistonda erkaklar va ayollar o'rtasidagi farq yoshga qarab ortadi. Aholining savodxonlik darajasi yuqori: 2021-yil holatiga ko'ra 15 va undan katta yoshdagilar orasida 99,99% va 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida 100%<sup>73</sup>. Boshlang'ich va o'rta ta'lim, hozirda 11 yillik (11 yillik maktab yoki 9 yillik maktab, keyin ikki yillik kasb-hunar kollejlari yoki akademik litseylarda o'qish) majburiy bo'lib, bitiruv ko'rsatkichlari qizlar va ayollar uchun yuqori. Majburiy boshlang'ich va o'rta ta'limdan so'ng o'g'il bolalarga qaraganda kamroq qizlar o'qishni davom ettirishadi. 2021-2022 o'quv yili boshida O'zbekiston davlat oliy o'quv muassasalarida qizlar 808,4 ming talabalarning atigi 45,6%ini tashkil qilgan. Bu farq STEM, ishlab chiqarish va qurilish yo'nalishlarida yana-da yaqqol ko'zga tashlanadi, masalan, Toshkent davlat aloqa universiteti (92%) va Toshkent davlat texnika universitetida (89%)<sup>74</sup> talabalarning katta qismini erkaklar tashkil etadi. Ushbu tengsizlik ijtimoiy-madaniy me'yorlarning natijasidir, unga ko'ra qizlar gumanitar fanlarni o'rganishga ko'proq moyil bo'lib, ta'limda o'g'il bolalarni qizlardan ustun qo'yish tendentsiyasi saqlanib qolmoqda. O'zbekistonda hamma ota-onalar ham qizlarning oliy ta'limda o'qishiga ruxsat berishmaydi. Ota-onalar qizlarini imkon qadar turmushga berishni afzal ko'rishadi. Masalan, O'zbekistonda ro'yxatga olingan nikohlarning uchdan birida – 305 211 ta nikohdan 93 201 tasida kelinlar bor-yo'g'i 18-19 yoshda<sup>75</sup>. Yana bir sabab - oliy ta'limning moliyaviy yuki. Ham davlat, ham xususiy universitetlarda ta'lim o'rta sinf oilasi uchun imkonsiz bo'lishi mumkin. Davlat universitetlarida yillik o'qish to'lovi 6 milliondan 10-12 million so'mgacha miqdor (600-1200 AQSH dollari)ni tashkil qiladi. Aksariyat hollarda qizlar turmush qurgandan so'ng ota-ona uyini tark etib, boshqa oilaning "mulki"ga aylanadi, shuning uchun ularning ta'limiga sarmoya kiritishning hojati yo'q. Shu bilan birga, o'g'il bolalar nafaqat kelajak boquvchisi, balki ota-onasi qariganda ularning suyanchig'i sifatida ham qaraladi. An'anaga ko'ra, kenja o'g'il xotini bilan ota-onasining uyida yashashi va barcha moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi kerak. Qizlar oliy ma'lumotga ega bo'lganda, ularning tanlovi xoh ixtiyoriy, xoh g'ayriixtiyoriy ravishda o'qituvchilik, chet tillari va hamshiralik mutaxassisliklariga to'g'ri keladi. 2021-yilda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabalarining 84%i, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 74%i talabalarni qizlar tashkil etgan<sup>76</sup>. Bunday tanlovning asosiy sababi ijtimoiy umidlardir. Qizlar o'z karyeralarini uy va bolalarga g'amxo'rlik qilish bilan muvozanatlashlari kerak deb hisoblanadi va ko'pincha talab qilinadi. STEM sohasidagi ish to'liq majburiyatni talab qilgan paytda, o'qituvchilik, ayniqsa xususiy muassasalarda yoki o'quv markazlarida, ish soatlari moslashuvchan. Ayollar haftada bir necha kun ishlashlari yoki faqat ertalab yo tushdan keyin ishlashlari mumkin, bu esa ularning ish vaqtini oilaviy majburiyatlariga muvofiq moslashtirish imkonini beradi. STEM yo'nalishlari o'qish vaqti va oilaviy mas'uliyatni o'zaro muvozanatlashi kerak bo'lgan yosh onalar uchun ham qiyin. 2021-yilda kelinlarning uchdan ikki qismi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lganlar edi, bu odatda bakalavriat talabalarining ko'pchiligi yoshiga to'g'ri keladi<sup>77</sup>. Bundan tashqari, ijtimoiy me'yorlar yosh oilalarni nikohning dastlabki ikki yilida farzand ko'rishga majbur qiladi. Biroq, universitetlarda bu hisobga olinmagan va na bolalar bog'chalari, na hatto emizish xonalari bilan jihozlangan.

Doktorantura darajasida gender tafovuti bakalavr va magistratura talabalariga qaraganda ancha

kengroqdir. 2021-yilda har uchinchi doktorantdan faqat bittasi ayol edi<sup>78</sup>.


Ta'lim, shuningdek, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy jihatdan o'zini-o'zi ta'minlash nuqtai nazaridan gender tengsizlik darajasini ko'rsatadi. Davlat maktablarida kam haq to'lanadigan o'qituvchilik lavozimlarida asosan ayollar, oliy o'quv yurtlarida esa yuqori haq to'lanadigan professorlik lavozimlarida erkaklar ishlaydi. 2021-2022 o'quv yilida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining 68%ini ayollar tashkil etdi. Biroq, 2020-yilda davlat universitetlari pedagog xodimlar va professor-o'qituvchilarining atigi 44,1%ini ayollar tashkil etgan<sup>79</sup>.

### Bandlik

GRIning uchinchi o'lchovi, iqtisodiy resurslarga egalik, erkaklar va ayollarning kutilayotgan daromadlari bilan o'lchanadi. O'zbekiston Markaziy banki tomonidan 2020-yilda o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, har beshinchi o'zbekistonlik xonadondan faqat bittasining umumiy daromadi kamida 6 million so'mni tashkil qiladi, 48% xonadonlarda esa 4 million so'mdan oshmaydi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar 13,3 million so'mni (taxminan 1250 AQSh dollari) tashkil qilgan.

### 14-RASM


Uy xo'jaliklarining daromad darajasi bo'yicha taqsimlanishi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2020-yil



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma'lumotiga ko'ra, oyiga 6 million so'mgacha daromadga ega bo'lgan xonadonlar daromadlarining 51-70%ini oziq-ovqatga sarflaydi<sup>80</sup>. E'tibor bering, 2021-yildan boshlab O'zbekistonda xonadonlarda o'rtacha 5 nafar odam yashaydi<sup>81</sup>. Oilalarning 73,9%i o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalari bor<sup>82</sup>.

## 15-RASM

Turlicha daromad darajasidagi uy xo'jaliklari iste'moli tarkibi.



Iqtisodiy resurslardan foydalanishda gender tengsizlik darajasi sezilarlidir. Ayollarning umumiy bandlikdagi ulushi 41,3%ni tashkil etadi (2016-yilda 45,7%). COVID-19 pandemiyasidan oldin, ayollar boshchiligidagi oilalarning daromadi erkaklar boshchiligidagi oilalar daromadiga qaraganda 17% past edi. Pandemiya davrida ayollar boshchiligidagi oilalarning 42%i 100 000 so'm (10 AQSH dollaridan kam) miqdoridagi kutilmagan xarajatlarni qoplay olmasligini bildirgan bo'lsa, taqqoslash uchun shunday javob bergan erkaklar boshchiligidagi uy xo'jaliklarining ulushi 25% ni tashkil etdi<sup>83</sup>.

2021-yilda ishsizlik darajasi 9,6% ni tashkil etgan<sup>84</sup> va aholining 11,5% milliy qashshoqlik chegarasidan pastda yashagan<sup>85</sup>. COVID-19 pandemiyasidan oldin ayollar uchun rasmiy ishsizlik darajasi 13% ni tashkil etgan bo'lsa, erkaklar uchun bu atigi 6%ni etdi<sup>86</sup>.

Qishloqlarda ishsizlik shaharlarga qaraganda ancha yuqori. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, masalan, Farg'ona viloyatida ishsizlikning real darajasi 70%ni tashkil etadi. Buning sababi shundaki, qishloq oilalari ko'pincha yer uchastkasiga, aksariyat hollarda oilaviy dehqonchilik yoki uy xo'jaligi uchun foydalaniladigan kichik tomorqa maydoniga egalik qiladi. Ushbu kichik yer maydonlari egalari rasmiy ravishda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan; biroq u yerda ish asosan norasmiy, soliqlarsiz va pensiya jamg'armasiga kirish imkoniyatisiz, mavsumiy asosda va haqiqiy daromadlarsizdir<sup>87</sup>: yetishtirilgan sabzavot va mevalar uy xo'jaligida iste'mol qilinadi yoki boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga almashtiriladi. Shu sababli ko'pchilik ish izlab boshqa davlatlarga – asosan Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Janubiy Koreyaga ko'chib ketishadi. Mehnat migratsiyasi ko'pincha bir necha fasl (bahordan kuzgacha) yoki bir necha yil davom etadi. Mamlakat bo'ylab ko'plab oilalar o'z oila a'zolari, asosan erkaklar tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalariga tayanib qoladilar. 2021-yilda O'zbekistondagi mehnat migrantlari o'z oilalariga qariyb 7,6 milliard dollar jo'natgan, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 11,6%ini tashkil etadi<sup>88</sup>. Rossiyadagi mehnat migrantlarining eng katta guruhini o'zbeklar tashkil etadi, 2022-yil iyuliga qadar u yerda 1,8 million o'zbekistonlik mehnat migranti sifatida ro'yxatga olingan<sup>89</sup>. Mehnat migrantlarining asosiy qismini erkaklar tashkil qiladi va o'z oilalaridan uzoqda bir necha oylar yoki yillarni o'tkazish davomida ularning ko'pchiligi rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslar xizmatlaridan foydalanish, inyeksion giyohvand moddalarni qabul qilish, boshqalar erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'lish kabi xavfli xatti-harakatlarga qo'l urishadi. Shu bilan birga, hujjatsiz migrantlar har qanday turdagi tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lishadi, Rossiyada esa OIV infeksiyasi aniqlangan migrantlar deportatsiya qilinib, mamlakat hududiga kirish bo'yicha qora ro'yxatga kiritiladi. Bu muammolarning barchasi to'planib boradi va oxir-oqibat infeksiya xavfi haqida ma'lumotga ega bo'lmagan, OIVga test topshirmagan va tegishli davolanish imkoniyatiga ega bo'lmagan migrantlar orasida OIV infeksiyasini yuqtirib olish xavfini oshiradi. Shuningdek, bu O'zbekistonga qaytgan migrantlar OIVni o'z xotini va oilasiga yuqtirishiga olib kelishi mumkin.




Ayollarga doimiy ish topish qiyinroq. Ko'pgina ayollar farzandlari bolalar bog'chasiga borish imkoniyatiga ega bo'lmagunicha, har bir farzandi uchun 2-3 yilgacha tug'ruq ta'tilini olishlari kerak. Bundan tashqari, oilaviy ahvol ayollarning mehnat qilish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi, chunki doimiy ravishda ayollar ulardan ishlashdan ko'ra uy ishlarini bajarishni talab qiladigan mahalliy urf-odatlarining ijtimoiy bosimi ostida bo'lishadi. Mamlakat bo'ylab o'tkazilgan milliy tadqiqot shuni ko'rsatdiki, turmush qurmagan ayollar (52%) orasida ish bilan ta'minlanish darajasi turmush qurgan ayollarga (36%) nisbatan yuqori. O'zbek ayollari turmush qurgandan keyin uyda bo'lishga moyil bo'lishadi: uy-ro'zg'or yumushlaridan tortib, bolalarni parvarish qilish va keksa oila a'zolariga g'amxo'rlik qilishgacha bo'lgan barcha vazifalar ayolning zimmasida. Ishlamaydigan va ish qidirmayotgan ayollarning 43%i ish bilan ta'minlanganlik sababiga uy-ro'zg'or mas'uliyati bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlagan bo'lsa, erkaklarning atigi 7%i xuddi shu sabab bilan ishlamasligini bildirgan<sup>90</sup>.

Turmush qurmagan ayollar orasida ish bilan ta'minlanganlik darajasi

**52%**

turmush qurgan ayollar orasida esa

**36%**



Bu misollarning barchasi ayollar noqulay ahvolda va ko'p jihatdan erkaklarga bog'liq ekanligini namoyon etadigan ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi gender tengsizligining ko'rsatkichlaridir. Gender tengsizligi ayollarning OIVga nisbatan zaifligini oshiradi, shuning uchun OIVga qarshi milliy choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishda bu muammolarni hisobga olish va hal qilish kerak.



## 3-BOB: O'IVGA QARSHI MILLIY JAVOB CHORALARI HAQIDA MA'LUMOT

## 3.1. MUVOFIQLASHTIRISH VA ISHTIROK

O'zbekiston hukumati OIV infeksiyasining oldini olish, diagnostikasi va davolashda barcha manfaatdor tomonlarni muvofiqlashtirish hamda OIVga qarshi kurashda jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarini kuchaytirmoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OIV infeksiyasi, sil va bezgak tarqalishiga qarshi kurashish hamda tadbirlarni amalga oshirish uchun donor mablag'larini jalb qilish sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash va ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo ekspert kengashi O'zbekistonda 2003-yilda tashkil etilgan va 2008-yilda o'zining hozirgi tarkibida qayta tuzilgan. 2013-yilda Idoralararo ekspert kengashi kotibiyati OIV, sil va bezgak bo'yicha milliy dasturlarni monitoring qilish uchun Monitoring va baholash guruhini tuzdi<sup>91</sup>. Idoralararo ekspert kengashi kotibiyati OIV, sil va bezgak kasalliklariga qarshi milliy chora-tadbirlar doirasidagi tadbirlarning bajarilishini baholash uchun hududlarga muntazam monitoring tashriflarini tashkil etadi. Tashriflar davomida Idoralararo ekspert kengashi, shuningdek, amalga oshirishning tarmoqlararo yondashuvini baholaydi va javob choralari sohasida ishlaydigan barcha manfaatdor hamkorlar bilan muzokaralar olib boradi. Bundan tashqari, Idoralararo ekspert kengashi kotibiyati davlat va ijtimoiy sohalardagi hamkor tashkilotlar rahbarlari bilan maslahatlashib, ularni OIVga qarshi choralarni muvofiqlashtirishning mavjud mexanizmlari, O'zbekistonda OIV epidemiyasiga qarshi choralar bo'yicha milliy strategiyani qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro va xorijiy grantlarning o'rni, shuningdek, fuqarolik jamiyatining sog'lom turmush tarzi haqida xabardorligini oshirish hamda OIV va sil kasalligining oldini olishga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beradi.

OIV infeksiyasiga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish vazirliklar, mahalliy hokimliklar va respublika bo'ylab turli idoralarning yaqin hamkorligini taqozo etadi. Prezidentimizning 2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (PQ-3493) va "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori (PQ-3800) 5 yil ichida davlat organlari tomonidan va turli manfaatdor tomonlarning birgalikdagi muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari bilan amalga oshiriladigan kompleks tadbirlar majmuini taqdim etdi.

O'zbekistonda OIVga qarshi choralarda yoshlar, ayniqsa, o'smirlar ishtiroki asosiy o'rinni egallaydi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi 84-sonli "O'zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori bilan O'zbekistonda OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi choralarda yoshlar ishtirokida tizimli targ'ibot-tashviqot tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Qarorda, shuningdek, davlat organlari, ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy birlashmalar, nodavlat, notijorat, xayriya va diniy tashkilotlar o'rtasida mamlakatning barcha hududlarida samarali hamkorlik qilish ko'zda tutilgan<sup>92</sup>.

## 3.2. QONUNCHILIK VA STRATEGIYA

So'nggi yillarda O'zbekistonda OIV infeksiyasining oldini olish va OIV bilan yashovchi odamlarni qo'llab-quvvatlash borasida burilish nuqtasiga yetdi. 2018-yilda Prezidentning ikkita qarori qabul qilindi.

2018-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-3493) bilan 2018-yilga O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi yangi Davlat dasturi tasdiqlandi. Dasturda aholi va OIV yuqish xavfi yuqori bo'lgan guruhlar orasida OIV infeksiyasi profilaktikasi, diagnostikasi va davolashni yanada takomillashtirish, OIV infeksiyasi profilaktikasi va diagnostikasi bo'yicha normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, OITSga qarshi kurashish markazlari va tumanlararo OIV diagnostikasi laboratoriyalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni oshirish orqali OIV sohasidagi kadrlar va ilmiy tajribani mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar keltirilgan. 2018-yilgi Davlat dasturini amalga oshirish uchun 4 211 milliard so'm (9 028 million AQSh dollari) byudjet rejalashtirilgan bo'lib, asosan davlat byudjeti (3 811 milliard so'm – 3 359 million AQSh dollari), xalqaro moliya tashkilotlari (5 669 million AQSh dollari) va milliy byudjetlar mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan<sup>93</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil iyun oyidagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (PQ-3800) bilan OIV infeksiyasi tarqalishini kamaytirish va oldini olish, shifoxona ichidagi infeksiyalarga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu chora-tadbirlar OIV infeksiyasini statsionar davolash sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, tibbiyot xodimlarining salohiyati va ilmiy salohiyatini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, aholi, ayniqsa yoshlar, orasida OIV infeksiyasining oldini olish bo'yicha tushuntirish-targ'ibot ishlarni kengaytirishdan iborat edi. Ushbu chora-tadbirlar uchun ajratilgan jami byudjet 103 222 milliard so'mni (o'sha paytda 34,879 mln. AQSH dollari) tashkil etdi (batafsil ma'lumot uchun 3.3-bo'limga qarang)<sup>94</sup>.

OIV infeksiyasiga qarshi kurash chora-tadbirlarni kuchaytirish va fuqarolik jamiyati bilan idoralararo hamkorlik mexanizmlari samaradorligini oshirishga yoshlarni jalb qilish bo'yicha tadbirlarni tizimlashtirish bo'yicha 2022-yil fevral oyida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (84-son) qarori qabul qilindi. Qaror tengdosh-tengdoshga tamoyili asosida yoshlar va OIV yuqish xavfi yuqori bo'lgan guruhlariga faolligiga hamda ommaviy axborot vositalarini jalb qilish va ijtimoiy media kampaniyalaridan keng foydalanishga qaratilgan. Mazkur qarorda keltirilgan 2022-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ga muvofiq vazirliklar va manfaatdor tashkilotlar Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Ichki ishlar vazirliklari, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Yoshlar masalalari agentligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, shuningdek, jarayonning faol ishtirokchilari sifatida ko'rsatilgan boshqa barcha davlat hamkorlari bilan birgalikda tadbirlarni amalga oshiradilar<sup>95</sup>.

### **3.3. OIVGA JAVOB CHORALARINI MOLIYALASHTIRISH**

O'zbekistonda OIVga qarshi choralar milliy va xalqaro manfaatdor tomonlar tomonidan moliyalashtiriladi. Moliyalashtirish va mablag' ajratish muhimligini e'tirof etgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilda qabul qilingan "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra OIV tarqalishini oldini olish va shifoxona ichki infeksiyalarini oldini olish, shuningdek, OIV infeksiyasining oldini olish, tashxislash va davolash bo'yicha ijtimoiy va tibbiy yordamni kuchaytirishga byudjetdan 103 milliard so'm (o'sha

paytda qariyb 35 million AQSH dollari) miqdorida mablag' yo'naltirilgan edi<sup>96</sup>.

O'zbekiston davlat byudjetidan tashqari OIVga qarshi choralarni OITS, bezgak va silga qarshi kurash global jamg'armasining moliyaviy ko'magida ham moliyalashtiradi.

Grant mablag'lari davlat byudjeti mablag'lari bilan bir qatorda Prezident qarorlari asosida sarflanadi. Prezidentning 2018-yildagi yuqorida qayd etilgan qarorida 2024-yilgacha 24 ta tadbiri yakunlash ko'zda tutilgan bo'lib, ularga 103,222 milliard so'm va 34,879 million AQSH dollari yo'naltirildi. Tadbirlar to'rtta asosiy ichki manba – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasining byudjetdan tashqari mablag'lari, OITS, sil va bezgakga qarshi kurashish global jamg'armasi, shuningdek, OITS markazlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

#### 4-JADVAL

OIVga qarshi milliy chora-tadbirlarni moliyalashtirish

Moliyalashtirish manbalari:	O'zbek so'mi (milliardlarda)	AQSh dollari (millionlarda)
1 O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti	67 617	24 439
2 Byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi	33.9	
3 OITS, sil va bezgakka qarshi kurashish bo'yicha Global jamg'arma		10.44
4 OITSGa qarshi kurashish markazlarining byudjetdan tashqari mablag'lari	1 705	



2018-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda 24 ta tadbir o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, 2019–2021 yillar uchun har yili 3,9 milliard so'm va 1,16 million AQSH dollari hamda 2022-yil uchun 12,9 milliard so'm ajratiladi, asosiy e'tibor OIV yuqish xavfi yuqori bo'lgan guruhlariga qaratilgan, shuningdek, ular orasida OIV profilaktikasi tadbirlarini amalga oshiradigan "Ishonch xonalari"ning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun ham mablag'lar ajratiladi. Mablag'lar, shuningdek, zarur bo'lgan tibbiy mahsulotlar bilan ta'minlashga, OIV yuqish xavfi yuqori bo'lgan guruhlar orasida ushbu infeksiyani erta aniqlash maqsadida OIVga test topshirish ko'lamini kengaytirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan ish rejalarining bajarilishi va ularning natijalarini ularning o'ziga xosligi bo'yicha tahlil qilib bo'lmaydi, afsuski, chunki OIV epidemiyasi bo'yicha, allaqachon mavjud bo'lgan umumiy ma'lumotlardan tashqari boshqa hisobot va ma'lumotlar yo'q. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan tadbirlar qay darajada amalga oshirilganligi, ularning samarasi va natijasi, ko'zda tutilgan barcha byudjet mablag'lari qanday ajratilganligi yoki davlat darajasida OIVga javob choralarining monitoringi o'tkazilganmi kabi savollarga javob berishning imkoni yo'q. Umuman olganda, asosiy izchil tendensiya shundaki, OIVga qarshi javob aholining asosiy guruhlariga emas, balki ko'proq umumiy aholiga qaratilgan bo'lib, ta'lim, salohiyatni oshirish va oldini olishdan ko'ra infratuzilma yondashuvlari va OIVni davolashga ustuvor ahamiyat berishga qaratilgan. Bundan tashqari, eng so'nggi qarorlargacha O'zbekiston hukumati haligacha gender tengsizligini OIV epidemiyasi tarqalishi bilan bog'lagani yo'q: rezolyutsiyalar gender nuqtai nazariga ega emas va OIVning oldini olish, diagnostika va davolash maqsadlarida juda umumiy bo'lib qoladi. Gender baholash jarayonida byudjet monitoringi yo'qligi sababli ajratilgan byudjetning gender tahlilini o'tkazish ham imkoni bo'lmadi. Natijada, agar mavjud bo'lsa, ta'sir darajasida gender muammolarini hisobga olish uchun byudjet taqsimoti yoki monitoringi bo'yicha aniq ma'lumotlar mavjud emas.

## 3.4. OIVGA TEST O'TKAZISH VA DAVOLASH

2022-yil yanvar oyi holatiga ko'ra, O'zbekistonda OIV bilan yashayotgan odamlarning taxminan 84%i o'z OIV maqomidan xabardor. Ma'lumotlar tarkibiy yo'sinda ajratilmagan.

OIVga test topshirish tartibi Sog'liqni saqlash vazirligining ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlari OIVga test topshirayotgan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlashi shart

Test ixtiyoriy yoki majburiy asosda o'tkaziladi. Majburiy OIV testi quyidagi shaxslar uchun o'tkaziladi:

- qon va biologik suyuqliklari donorlari (har bir donorlikdan oldin);
- ellik yoshgacha bo'lgan nikohlanuvchi shaxslar;
- homilador ayollar;
- inyeksiya orqali giyohvand moddalarni iste'mol etishda gumon qilinayotgan shaxslar (yilda 1 marta);
- OIV-musbat onalardan tug'ilgan bolalar (polimeraza zanjiri reaksiyasi bo'yicha 6 va 12 haftaligida, 18 oyligida IFA usuli orqali);
- o'z faoliyatida qon, biologik suyuqliklar, odam organlari va to'qimalari bilan ishlovchi tibbiyot xodimlari;
- jinsiy sherigida OIV aniqlangan shaxslar.

Voyaga yetmaganlar va muomalaga layoqatsiz fuqarolarni OIVga test topshirish ularning qonuniy vakillarining roziligi bilan amalga oshiriladi<sup>97</sup>.

2020-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 78 ta OIV diagnostikasi laboratoriyalari faoliyat olib boradi. Shulardan 15 ta laboratoriya majmuasi respublika yoki viloyat OITSga qarshi kurash markazlari tarkibida, 63 tasi esa tumanlararo laboratoriyalar hisoblanadi. Ularning ishini qo'llab-quvvatlash uchun har yili davlat tomonidan 8 milliard so'mdan ortiq (72 617 AQSh dollarga yaqin) mablag' ajratiladi. OIV diagnostikasi IFA, immunoblotting, PSR, immunologik, klinik, biokimyoviy va bakteriologik testlar yordamida amalga oshiriladi<sup>98</sup>.

**Mamlakatda OIVga testdan o'tayotganlar soni asta-sekin o'sib bormoqda. 2008-yilda faqat 800 000 kishi OIV testidan o'tkazildi. 2017-yilga kelib bu ko'rsatkich 3,2 million kishiga yetdi<sup>99</sup>.**


O'zbekistonda har yili 600 mingga yaqin homilador ayol OIVga testdan o'tkaziladi. Har yili taxminan 550-600 bola OIV bilan yashovchi ayollardan tug'iladi. OIVning onadan bolaga yuqishini oldini olish uchun onalar ham, yangi tug'ilgan chaqaloqlar ham ARV preparatlarini qabul qilish imkoniga ega. OIV-musbar onalardan tug'ilgan chaqaloqlari hayotining birinchi olti oyida bolalar uchun bo'tqasini (quruq sut) ham oladi<sup>100</sup>. Ushbu va boshqa chora-tadbirlar natijasida 2015-yilga kelib OIV bilan yashovchi ayollardan sog'lom bolalarning tug'ilishi holatlari foizi 98-99%ga yetdi<sup>101</sup>. Oxirgi MIKS ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi ikki yil ichida tirik bola tug'gan 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollarning 45%i antenatal parvarish paytida OIV testini o'tkazish taklif qilingani va rozi bo'lganligi hamda natijalarini olganligini, 27 %i esa OIV bo'yicha tegishli ma'lumot yoki maslahat ham olmaganini bildirdi.

Bundan tashqari, 2003-yildan boshlab nikohni qayd etish uchun ariza bergan er-xotinlar Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi (365-son) qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq muayyan tibbiy ko'riklardan, jumladan, OIVga testdan o'tishlari shart<sup>102 103</sup>.

Oxirgi MIKS ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistonda 20-24 yoshli ayollarning 25%i va 25-29 yoshli ayollarning 21%i OIVga test topshirgan va uning natijasidan xabardor.

## 16-RASM

2021-yilda OIVga testdan o'tgan ayollar ulushi.



2020-yilda COVID-19 pandemiyasi davrida favqulodda chora sifatida O'zbekistonga qaytgan 261 394 nafar mehnat migrantlarining 80 %i OIVga testdan o'tkazildi va ijobiy natijalar bo'lgan taqdirda ularga zarur tibbiy yordam ko'rsatildi<sup>104</sup>.


O'zbekistonda 2018-2022-yillarda OIV infeksiyasini davolash uchun ajratiladigan mablag'lar o'sish tartibida ko'paytirildi. Hukumatning rejasiga ko'ra, 2018-yilda OIV infeksiyasini davolash uchun 2,38 million AQSh dollari, 2019-yilda 2,66 million AQSh dollari, 2020-yilda 3,34 million AQSh dollari va 2021-yilda 6,14 million AQSh dollari sarflangan. 2022-yil uchun bu ko'rsatkich 8,54 million AQSh dollarini tashkil etadi<sup>105</sup>.

2021-yil oxiriga kelib, jami 34 187 kishi ARVni qabul qildi, bu OIV bilan yashaydigan odamlar umumiy sonining taxminan 64% ni tashkil qiladi. ARV preparatlarni qabul qiladigan OIV bilan yashayotgan erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq: 15 yoshdan oshgan OIV bilan yashayotgan ayollarning 48,7% ARV preparatlarni qabul qiladi, xuddi shu yosh guruhidagi OIV-musbat erkaklarning 51,3% ARV preparatlarni qabul qiladi<sup>106</sup>.

2016-yildan boshlab ARV dorilari bilan qamrab olingan OIV bilan yashayotgan homilador ayollarning ulushi har yili 98%dan pastga tushmagan<sup>107</sup>.







#Respect and Dignity  
Respect people  
who live with  
HIV infection

#Respect and Dignity  
OIV musbat insonlar-  
ga bepul berilayotgan  
ARVT larni qadr-qiymati  
ga yeting!

ARVT  
vaqtin  
ling va  
qadr-  
t  
#Resp

There are  
who buy  
money. So  
Respect

# 4-BOB: XULOSALAR VA TAVSIYALAR

## 4.1. YAKUNIY IZOHLAR

O'zbekistonda OIV konsentratsiyalangan bosqichda va OIV infeksiyasining yangi holatlari yillik soni barqarorligiga qaramay, OIV bilan yashayotgan odamlar soni o'sishda davom etmoqda. Jinsiy yo'l bilan yuqish inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qilishdan ustunlik qilmoqda: 2022-yil yanvar oyi holatiga ko'ra, OIV yuqtirish holatlarining 71% jinsiy yo'l bilan yuqish hissasiga to'g'ri keladi<sup>108</sup>.

**Ayollar OIVning oldini olish, testdan o'tish va davolanish imkoniyatlari bo'yicha zaif holatda. Patriarxal ijtimoiy-madaniy me'yorlar va amaliyotlar, chuqur o'rnashgan mahalliy an'analar ayollarning roli va xatti-harakatlariga yuqori talablar qo'yilishiga olib keladi va natijada gender tengsizligining davom etishiga hissa qo'shadi.**

Ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar tufayli ayollar OIV va uning yuqish yo'llari, tekshiruvdan o'tish, maslahat olish yoki davolanish imkoniyatlari haqida kamroq ma'lumotga ega. Genderga zo'ravonlik, xususan, oiladagi zo'ravonlik ayollarning OIVga nisbatan zaifligini yanada oshiradi. So'nggi besh yil ichida O'zbekiston hukumati tomonidan gender tengligi va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi taraqqiyotni jadallashtirishga qaratilgan yangi qonunlar hamda kafolatlar tasdiqlandi va shubhasiz aytish mumkinki, gender tengligi, albatta, milliy kun tartibidan joy oldi.

Ayollarning umr ko'rish davomiyligi erkaklarnikiga qaraganda uzoqroq (75,8 yoshdan 71,7 yoshgacha) bo'lsa-da, sog'liqdagi ba'zi muammolar, jumladan xavfli o'smalar ayollar orasida ko'proq uchraydi. Masalan, 2021-yilda 7253 ayol va 6321 erkak o'smalardan vafot etgan<sup>109</sup>. Sil kasalligi ayollarga nomutanosib ravishda ta'sir ko'rsatadigan yana bir sog'liq muammosi bo'lib, 2021-yilda har 100 000 ayolga 35,9 ta holat va 100 000 erkakka 32,9 holat to'g'ri kelgan<sup>110</sup>.

O'zbekistonda OIVning oldini olish, diagnostika qilish va davolash borasida barcha manfaatdor tomonlarni muvofiqlashtirish hamda OIVga qarshi kurashda jamiyatning barcha qatlamlarining ishtirokini oshirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. O'zbekiston hukumati OIVga qarshi choralarga, ayniqsa OIVni davolashga qo'shgan hissasini oshirmoqda.



2021-yilda  
**7 253** ayollar va  
**6 321** erkaklar  
xavfli o'smalardan  
vafot etgan

“

Shuningdek, aloqadan oldingi profilaktika tizimi joriy qilindi va taqdim etildi. Gender tengligi, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish sohasidagi erishilgan yutuqlarni inobatga olgan holda, hukumatning OIV bilan bog'liq kelgusidagi qonunlari, siyosati va harakat rejalariga gender nuqtai nazarini integratsiyalashuvini boshlash, shuningdek, OIVga qarshi kurashda genderga yo'naltirilgan milliy choralarni ishlab chiqish uchun katta salohiyatga ega.

## 4.2. QAROR QABUL QILUVCHI SHAXSLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA OIVGA QARSHI KURASHNI GENDER NUQTAI NAZARIDAN KUCHAYTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Gender baholash jarayonida jamoa O'zbekistonda OIVga qarshi choralarda gender tengligini yanada takomillashtirish bo'yicha asosiy siyosat va amalga oshirishdagi asosiy muammolar va kamchiliklar aniqladi. Ushbu tahlil natijasida jamoa aniqlangan kamchiliklarga quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdi:



### 1-MASALA. MA'LUMOTLARNING MAVJUDLIGI

#### Xulosalar:

